

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
U.N.Olimov	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi	336
M.Q.Tolibboev	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar	340
X.S.Jumanazarov	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
Sh.N.Jo'rayev	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
O.M.Normatov	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
D.G'.Mirzayev	
"Turkiston viloyatining gazetasি" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili	361
A.O.Tairov	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
P.A.Nabihev	
"Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)"	373
A.A.Mamadjanov	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik mакtabining ilk vakili.....	378
P.A.Arslonzoda	
Tasвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ	382

ADABIYOTSHUNOSLIK

A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir	389
Z.J.Pardayeva	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman	393
H.Jo'rayev	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
K.A.Jamahmatov	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi	404
X.Jo'rayev, M.Ismoilova	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi	410
I.I.Rustamova	
Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini	413
M.A.Jo'rayeva	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti	417
M.Islomova	
Taqlid va Tasvir	421
D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov	
Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli	424
X.T.Mirzaev	
Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин	428
N.Q.Bo'riyeva	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
M.Sh.Dehqonova	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
G.A.Mashrapova	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
Q.V.Yo'lichiyev	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili	449
B.N.Isakova	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati	456



УО'К: 82.09

IJTIMOIY TAFAKKURNING MAJOZIY IFODASI**АЛЛЕГОРИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРАТАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО МЫШЛЕНИЯ****A FIGURATIVE EXPRESSION OF SOCIAL THOUGHT****Jo'rayev Xabibullo**

Farg'ona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ismoilova Mohira 

Farg'ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya

Maqolada tabiat hodisalari, xususan, qushlar hayoti, yashash tarzining odamlar xarakteri, fe'l-atvori, xatti-harakatlari bilan o'xshash jihatlari badiiy adabiyotda ifodalanishi haqida so'z boradi. Folklor va yozma adabiyot namunalarida ijtimoiy hayotdagi hodisalarning majoziy – allegorik jihatlari yoritilishiga e'tibor qaratiladi.

Аннотация

В статье говорится об изображении явлений природы, в частности, жизни птиц, образа жизни и особенностей, характера и поведения людей в художественной литературе. В примерах фольклора и письменной литературы уделяется внимание освещению образных и аллегорических сторон событий общественной жизни.

Abstract

The article talks about the representation of natural phenomena, in particular, the life of birds, the way of life and the characteristics, character, and behavior of people in fiction. In examples of folklore and written literature, attention is paid to the illumination of figurative and allegorical aspects of events in social life.

Kalit so'zlar: Tabiat hodisalari, ijtimoiy tafakkur, majoziy ifoda, allegorik obraz, qiyosiy tahlil, badiiy tasvir.

Ключевые слова: Явления природы, общественное мышление, образное выражение, аллегорический образ, сравнительный анализ, художественный образ.

Key words: Natural phenomena, social thinking, figurative expression, allegorical image, comparative analysis, artistic image

KIRISH

Bizgacha yetib kelgan folklor namunalari, ayniqsa, ertak va maqollarda, latifa hamda matallarda muayyan shaxs obrazining allegorik-majoziy ifodasi xalq donishmandligi, zukkoligini aks ettirishda qo'l kelgan. Qushlar obrazlari vositasida xalq qahramonlari o'z salohiyatlarini namoyish etishlarida, ommaning dard-tashvishlarini baralla aytishlarida muhit bilan munosabatlari muayyan sahna rolini o'tagan deyish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shuningdek, odamlarning ruhiy-psixologik holatini belgilaydigan mushohadalar ham qushlar obrazi bilan bog'liq ironiyali maqollarda yorqin ifodalanadi: "Qush uyasida ko'rganini qiladi", "Qarg'a qag' etdi – o'z vaqtini chog' etdi", "Sinchalak osmon qulasa tutib qolaman deb oyog'ini osmonga uzatib ugraydi" va hokazo. Darhaqiqat, xalq qadim zamonlardan buyon qushlar timsolidagi hikmatlar orqali hamda o'z adabiy qahramonlari tilidan nosoz zamona yoki noqis tuzumga, zimdan bo'lsa-da, o'z munosabatlarini bildirib kelgan.

"Chiranma g'oz – hunaring oz", "Xo'roz men qichqirmsam tong otmaydi deb o'yaydi", "Chumchuq "pirr" etsa, yuragi shirr etadi", "Tovuqmiya" singari ibora va matallarda muayyan shaxslarga antipatiya, ya'ni salbiy munosabat ifodalansa, "Qoshlari qaldirg'och qanotidek", "Tovusdek tovlanadi", "Xonishi bulbulni eslatadi", "Musichadek beozor" singari iboralarda simpatiya, demak, ijobiy munosabatni anglashimiz mumkin.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Kabutar timsoldida tinchlik ramzi anglanishi, lochin obrazida qahramon fazogir va uchuvchilarni, kalxat obrazi orqali bosqinchlik urushi olib boruvchilarni nazarda tutilishi ham qushlar obrazi ijtimoiy hayotimiz va falsafiy tafakkurimizdan mustahkam o'rin organligidan dalolatdir.

Kichkintoytlarni "polaponim" deya erkalash, bolakaylarni "xo'roz" deya rag'batlantirish, mohir chavandozlarini "Qushdek uchadi" deya ta'riflash, ko'pkari-ulоqlarda tajribali ishtirokchini burgutga qiyoslash ham borliqni qushlar vositasida ko'z oldimizga keltirish azaldan ongimizga singib ketganligini payqash mumkin. Bolaligimizdayoq "qarg'a – qaqimchi, chumchuq – chaqimchi" sifatida ertaklar olamiga olib kirishi ham qushlar bilan munosabatimiz juda erta shakllanishiga sabab bo'ladi. [6. 112]

Birgina qaldirg'och bilan bog'liq talay irim va alomatlar hanuzgacha ongimizda yashab kelmoqda: "Qaldirg'ochga o'q tegmaydi", "Qaldirg'ochning uyasini buzgan odamning ko'zini devlar timdalaydi", "Tushinga qaldirg'och kirsa, ostonangda baxt kutadi", "Yigit tushida qaldirg'och ko'rsa, sevganiga uylanadi", "Qaldirg'och aylangan uydagi qizga sovchilar keladi" va hokazo.

Yuqorida aytganimizdek, xalq ertaklarining aksariyatida ham qushlar obrazlari vositasida shaxs va jamiyat munosabatlari mavzusini yoritish yetakchi o'rin tutadi. Chunki voqelik turli toifa kishilar, xilma-xil xarakterlar, betakror voqeа-hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan maskan bo'lib, badiiy asar personajlarining hayotiyligini, voqeа-hodisalar haqqoniyligini ta'minlaydigan muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Keltirilgan misollardan shu narsa oydinlashadiki, qushlar obrazlari orqali o'rtaga tashlangan shaxs tushunchasi, uning voqelik bilan munosabatlari, hodisalarning inson ma'naviyatiga ta'siri masalalari xalqimizda juda qadimdan shakllangan, qadriyatlarimizning muhim tarkibiy qismi sifatida yashab kelgan. Yurt obodligi, ro'zg'or to'kinligi, inson tadbirkorligi, qolaversa, ma'naviy-falsafiy xususiyatlar, axloq-odobga doir qarashlar ham muayyan qush timsolidagi shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'rnı mavzusiga ularib ketadiki, bu mavzu ham tarixiy jihatdan, ham falsafiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, majoziy obraz orqali ifodalangan shaxs tajribasi yoshlarni turmushga tayyorlash, hayot saboqlarini o'rgatishda ham muhim manba vazifasini bajargan. Qo'qon adabiy muhitining zabardast vakili Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari fikrimizning yaqqol dalilidir. [2. 36]

NATIJA VA MUHOKAMA

Qadim-qadimdan shakllanib kelgan qush obrazi bilan bog'liq tushuncha va tasavvurlar davrlar o'tishi bilan zamonaviy mazmun-mohiyat kasb etib boraveradi. O'tgan asrning o'talaridan boshlab "Texnika – dehqonning qanoti" degan ibora keng ommalashdi va bugungi kunda ham qo'llanish darajasi toraygani yo'q. Yoki oilaning muqaddasligi, mustahkamligi haqida gap borganida "Qanot juft bo'ladi" degan ibora zamiriga olam-olam ma'no yuklanadi.

Ishyoqmas, muttaham, xudbin kishilar hamma zamonlarda ham bo'lgan. Bunday kimsalar haqida "Og'irning ustida, yengilning ostida yuradi" degan kinoyaviy o'xshatish qo'llaniladi. Ana shu tushunchani yanada obrazli va ta'sirli bo'lishi uchun qush ishtirokidagi allegorik matal ham yaratilgan: "Tuyaqush quruqlik bo'lsa, qanotim bor qushman, der, suv bo'lsa, suzmayman – tuyaman, der". Aynan shu matalning boshqacha shakli ham mavjud bo'lib, unda ishyoqmas, tanbal kishilarni tuyaqushga nisbat beriladi: "Yuk ortaman desang qushman deydi, uchgin, desang tuyaman, deydi". Shuningdek, tuturiqsiz, betayin kimsalarga nisbatan bedananing yashash tarzi qiyoslanadi: "Bedananing uyin yo'q, qayga borsa bitbildiq". Qarg'aning o'ta ehtiyyotkorligi, hamisha olazarak yashashi ham odamlar nazaridan chetda qolmagan. Undagi bu xususiyatlar o'zini xudbinlarcha avaylaydigan, har bir narsa-hodisadan hadiksirab yashaydigan kishilarga qiyoslanadi: "Bir cho'qib, ikki alanglaydi".

Badiiy adabiyotda qahramonning ruhiy holatlarini ifodalashda ham qush obraziga murojaat qilish qadimiylanish an'analarga ega. Hazrat Alisher Navoiy g'azallaridan birida lirik qahramonning kayfiyatini ifodalashda quyidagi ta'sirchan misrani keltiradi: "Parim bo'lsa uchib qochsam ulustin to qanotim bor". [1. 301]

O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she'rlaridan birida insonning sabot va matonati haqida lirik mushohadalarini quyidagicha xulosalaydi:

Qushda-chi, sabot yo'q, shu sabab unga
Qochib qolmoq uchun qanot berilgan.

O'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy ham o'z qahramonlarining holat hamda ruhiy kechinmalarini ifodalashda qush obraziga ko'p o'rinnlarda murojaat qiladi, shu yo'l bilan voqeal-hodisalarning oqibat natijalarini ko'z oldimizda obrazli gavdalantirishga muvaffaq bo'ladi. Qaynota darvozasidan haydalgan, usta Alimning o'z qismatiga o'xshash hikoyatidan ta'sirlangan Otabekning ruhiy holatini "Qalbi polaponlarini uchirib ketgan karruk qushning uyasidek bo'm-bo'sh edi" deya ta'riflaydi. Yoki Zaynabning Otabek bilan munosabatlari haqidagi to'qib-bichgan gaplarini eshitgan Kumushbibi "moddiy ozuqasidan ayrılgan qush"ga o'xshatiladi.

"Mehrobdan chayon" romanida Nigorxonim tilidan "o'z egasi" ya'ni Anvar haqidagi gapso'zlar Ra'noni o'ng'aysizlantirsa-da, "egasi" kimligini yaxshi bilgani va uni "qanot qoqib" kutib oluvchi bo'lganligi uchun ranjimaydi.

Xalq ertak va rivoyatlarida jabrdiyda qahramon tilidan ko'pincha "Qush edim - qanotimni qayirdilar" iborasi keltiriladi. "Rag'bat insonga qanot bag'ishlaydi", "Yomon xabarning qanoti bo'ladi" singari iboralar ham xalqimiz o'ttasida tez-tez tilga olinadi.

XULOSA

Voqelikka baho berishda xolis bo'la olishimiz, har bir shaxsnинг ijobji xususiyatlarini turmush tarzimizga tatbiq etishimizda ham ijtimoiy hayotning ko'zgusi bo'lgan so'z san'ati – adabiyot bizning yaqin maslakdoshimiz, tarbiya vositasi, ta'sir ko'rsatish omili ekanligi shubhasiz. Shuning uchun ham so'ngi yillarda jamiyat va inson taqdiri masalasi adabiyotning eng dolzarb va muhim muammolaridan biriga aylandi. Ana shu muammolarning badiiy yechimida allegorik obrazlar, xususan, qushlar vositasiga murojaat qilish bugungi kunda ham izchil va an'anaviy davom etmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Т.: "Ўзбекистон. 1993
2. Гулханий. Зарбулмасал. Т.: 2016.
3. Панчантантра. Хинд эпоси.(И.Фафуров таржимаси) Т.: 2016
4. Султон И. Адабиёт назарияси. Т.: 2005
5. Шарипов Ш. "Лисон-ут тайр" генезиси. Т.: 1980
6. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Т.: "Ўқитувчи". 1980